



“MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINING  
QO'LLANILISHI ”

**Muhammadxonov Bilolxon Bahodir o'g'li**

*Namangan shahar 4-son tehnikumi “Tabiiy Gumanitar va  
Maxsus fanlar kafedrası” o'qituvchisi  
Tel: +998913530823*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Maqolada multimedia texnologiyalarining bolalar idrok etish jarayoniga ta'siri, ularning bilish faolligini oshirishdagi o'rni hamda tarbiyachi-bola o'zaro munosabatlarida raqamli vositalardan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilinadi.*

**Abstract:** *This article discusses the theoretical and practical foundations of the use of multimedia tools in preschool educational organizations. The article analyzes the impact of multimedia technologies on the cognitive process of children, their role in increasing their cognitive activity, and ways to effectively use digital tools in the educator-child relationship.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы использования мультимедийных средств в дошкольных образовательных организациях. Анализируется влияние мультимедийных технологий на познавательный процесс детей, их роль в повышении когнитивной активности, а также способы эффективного использования цифровых инструментов во взаимодействии воспитателя и ребенка.*

**Kalit so'zlar:** *multimedia vositalari, maktabgacha ta'lim, interaktiv texnologiyalar, raqamli ta'lim, bolalar rivojlanishi, ta'lim jarayoni, innovatsion usullar.*

**Keywords:** *multimedia tools, preschool education, interactive technologies, digital education, child development, educational process, innovative methods.*

**Ключевые слова:** *мультимедийные инструменты, дошкольное образование, интерактивные технологии, цифровое образование, развитие ребенка, образовательный процесс, инновационные методы.*

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim tizimiga ham shiddat bilan kirib bormoqda. Maktabgacha ta'lim yoshi — bolaning intellektual, jismoniy va estetik rivojlanishining eng poydevor davridir. Bugungi kun mevalari bo'lmish yosh avlodni an'anaviy, bir xil qolipdagi usullar bilan qiziqtirish qiyin. Shu bois, maktabgacha ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda.





Maktabgacha yosh davrida multimedia vositalari haqida so'z ketganda savol tug'ildi, multimedia vositalari nima? Multimedia — matn, ovoz, grafika, video va animatsiyalarni bir vaqtda jamlagan elektron ma'lumotlar majmuidir. Maktabgacha ta'limda multimediaga quyidagilar kiradi:

- Interaktiv doskalar va planshetlar;
- Rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari;
- Multifilmlar va audio-ertaklar;
- Elektron slaydlar va video-lavhalar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar asosan ko'rgazmali metodlar yordamida va vizual materiallar vositasida mashg'ulotlarni o'zlashtiradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotining 3-4-yoshli ya'ni kichik guruh bolalarida mashg'ulot davomiyligi 15- daqiqani tashkil etadi, bu vaqt mobaynida ularga og'zaki metoddan 1-3-daqiqagacha foydalanish mumkin, 3-daqiqadan ko'p og'zaki metoddan foydalanish mashg'ulotning samarali o'tishiga yordam bermaydi. Bu yosh davrida ularga ko'proq ko'rgazmalardan, turli multimedia vositalaridan foydalanish orqali mashg'ulotlarni olib borish kutilayotgan natijani beradi. Og'zaki nutq orqali tushuntirish qiyin bo'lgan mavzularni masalan, fasllar almashishi, hayvonlarning hayoti va tabiat hodisalari multimedia yordamida rang-barang va harakatlanuvchi shaklda ko'rsatish bolaning diqqatini darhol tortadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Bundan tashqari, mashg'ulotlar davomida multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan interaktiv o'yinlar orqali bola ta'lim jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, interaktiv doskada "shakllarni joyiga qo'y" yoki "ortiqchasini top" kabi o'yinlarni bajarish orqali bolada mantiqiy fikrlash tezroq shakllanadi.



Pedagoglar mashg'ulotlar davomida multimedia vositalaridan: planshet, interaktiv doska, televizor, mikrafon, ovoz kuchaytirgichlardan foydalanishda me'yor va xavfsizlik talablariga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Multimedia vositalari qanchalik foydali bo'lmasin, ko'p vaqt foydalanish bola salomatligida salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekranga tikilib turish vaqti kuniga 15-20 daqiqadan oshmasligi kerak. Aks holda, bu bolaning ko'rish qobiliyati va asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, tarbiyachilar multimedia materiallaridan foydalanishda bolalarning yosh xususiyatlariga va psixologiyasiga mos kelishi, ularda agressiya yoki qo'rquv uyg'otmasligi kabi holatlarni ham o'rganib keyin jarayonga tatbiq etishi zarur.

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta'lim jarayonida multimedia vositalarining qo'llanilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. U bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda beqiyos ko'makchi bo'ladi. Asosiysi, ushbu zamonaviy texnologiyalardan oqilona, me'yorida va pedagogik mahorat bilan foydalanish talab etiladi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ilk qadam" davlat maktabgacha ta'lim dasturi
2. Ishmuhamedov R. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" - T., 2010.
3. "Zamonaviy multimedia vositalari yordamida bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish".
4. "The Role of Interactive Multimedia in Early Childhood Education".
5. "Maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish" O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi.

### Internet manbaalari:

1. Pedagogika.uz
2. Ziyonet
3. Geogle Scholar

